Bir haftada bir kitob: Migel de Servantes - “Don Kixot”

// 13.03.2026
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/bir-haftada-bir-kitob-migel-de-servantes-don-kixot



“O‘zkimyosanoat” AJ kitobxonlik madaniyatini keng targ‘ib qilish maqsadida “Bir haftada — bir kitob” ruknini yo‘lga qo‘ydi. Ushbu rukn orqali jamiyatning elektron kutubxonasida jamlangan o‘zbek va jahon adabiyotining sara namunalarini mutolaa qilishingiz mumkin.

Bugun jahon adabiyotining eng nodir asarlaridan biri Migel de Servantes qalamiga mansub “Don Kixot” romanini tavsiya qilamiz.

Ispan adibi Migel de Servantesning qahramoni Don Kixot yozuvchining o‘zidan ham mashhur, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘z davrining mashhur ritsarlik romanlariga parodiya tarzida yozilgan “Don Kixotning sarguzashtlari” asarida reallik ulug‘lanadi. Bu boqiy kitob yaratilganidan so‘ng ritsarlik romanlarining umri tugab, realistik nasrga keng yo‘l ochildi.

Don Kixot sermubolag‘a ritsarlik romanlari mutolaasiga mukkasidan ketib, axiyri o‘zi ham sarguzashtlar ishtiyoqiga tushib qoladi. U dunyoni, o‘z davri va hayotini tubdan o‘zgartirishni istaydi. Bu yo‘ldagi urinishlari esa chappasiga aylanib, kitobxonda beixtiyor kulgi uyg‘otadi.

“Savobli” sa’y-harakatlari oxir-oqibatda yomonlikka xizmat qiladi. Shu ma’noda Don Kixot ezgulikning omadsiz kurashchisidir.

Kitobni elektron tarzda o'qish uchun: https://t.me/uks_digital_library/726